

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA HAKAMLIK SUDLARI TO'G'RISIDAGI QONUNCHILIKNI
TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI TO'G'RISIDA**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10651054>

Fayzullayev Muxriddinxon Sadriddinovich

*“Mediatsiya Hakamlik sudi” MCHJ huzuridagi doimiy faoliyat yurituvchi hakamlik sudi
sudyasi, «Premium legal» advokatlik byurosi advokati*

Аннотация. Ushbu tezisda muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasida Hakamlik sudlari to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirishning ayrim masalalari to'g'risida, muammolar, xorij tajribasi o'rganilgan va buni milliy qonunchilikda qo'llanilishi yuzasidan fikrlar bildirilgan.

Калит сўзлар: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, qonunchilik, hakamlik sudi, sudya, mehnat, nizo, alternativ yechim, mulkiy nizolar, vakolat.

Zamonaviy dunyoda nizolarni muqobil hal etish - Hakamlik sudining afzalliklarini uzoq vaqtdan beri kashf dolzarb bo'lib kelmoqda. Tarixga qaraganda, hakamlik sudlari davlat sudlarining yurisdiksiyasidan oldin bo'lib, fuqarolik protsessida dispozitivlik tamoyilining eng yuqori ko'rinishidir. Bu davlat adolatiga muqobil bo'lib, u hamma joyda mavjud hamda rivojlanmoqda. Lekin bizning mamlakatimizda ushbu vaziyat sekinroq ketmoqda deyish mumkin.

Agar siz buzilgan huquqni himoya qilinishini qidirsangiz va ushbu nizoning qonuniy kuch bilan tezda hal qilinishini istasangiz, shartnomada ilgari kiritilgan Hakamlik sudi bandi kabi eng munosib qoida hakamlikdir.

Hakamlik sudining muhokamasining yakunida taraflar davlat sudining qarori bilan bir xil kuchga ega bo'lgan qarorni olishadi. Hakamlik sudi ikki jabhada - vaqt va pulda aniqlikka erishishning tejamkor usulidir.

Hakamlik muhokamasi, bir tomondan, qiyoslab bo'lmaydigan darajada tezroq, chunki mustaqil arbitrlarning o'zlari qisqaroq muddatlarni belgilaydilar, ikkinchi tomondan, bu bir instantsiyali sud jarayonidir. Ushbu qaror qabul qilinganidan keyin u qonuniy va ijro etuvchi kuchga kiradi va faqat sud orqali o'zgartirilishi mumkin.

Hakamlik sudi jarayoni arzonroq. Da'vo qiymatining 4 foizi miqdorida¹³² doimiy ravishda belgilanadigan davlat bojidan farqli o'laroq, hakamlik sudida bu foiz da'vo miqdori oshishi bilan kamayadi. Qisqaroq jarayon, shuningdek, agar tomonlar ulardan foydalanishni tanlasa, kamroq vaqt ichida advokatlarni yollashni o'z ichiga oladi. Xuddi shu narsa guvohlar, ekspertlar, tarjimonlar va boshqalarga ham tegishli. Sud jarayoni odatda ochiq bo'lsa-da, hakamlik muhokamasi maxfiy bo'lib, tomonlar o'rtasidagi munosabatlarga zarar

¹³² O'zbekiston Respublikasining "Davlat boji to'g'risida"gi Qonuni, 06.01.2020 yildagi O'RQ-600-son

yetkazilishining oldini oladi. Lekin shuningdek, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida davlat sudlariga tushayotgan juda katta hajmdagi ishlar, sudyalarning nizolarni to'liq o'rganib chiqishda ulgura olmayotganligi hech kimga sir emas.

Shu o'rinda davlat sudlariga alternativ variantda foydalanib kelinayotgan hakamlik sudlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikni takomillashtirish lozim deb hisoblaymiz.

O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida" Qonuniga ko'ra ushbu qonun fuqarolik huquqiy munosabatlardan, shu jumladan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish munosabati bilan kelib chiqadigan nizolarga, shuningdek yakka mehnat nizolariga va oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga mediatsiyani qo'llash bilan bog'liq munosabatlarga nisbatan, agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, tatbiq etilishi belgilangan¹³³.

O'zbekiston Respublikasining "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra hakamlik sudlari fuqarolik huquqiy munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolarni, shu jumladan tadbirkorlik subyektlari o'rtasida vujudga keluvchi iqtisodiy nizolarni hal etishi belgilangan¹³⁴.

Ko'rinib turibdiki, mediator o'z faoliyatida hakamlik sudidan kengroq vakolatga ega. Bunda hakamlik sudida yakka va kollegial mehnat nizolarini va oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan mulkiy nizolarni, ko'chmas mulk bilan bo'g'liq bo'lgan nizolarni ko'rib chiqish uchun o'tkazish bilan ularga ko'proq vakolat bergan holda, davlat sudlariga bo'lgan ish hajmining ko'pligini kamaytirish, pirovardida ijtimoiy munosabatlarni hal qilishni ko'proq nizo taraflarining o'ziga qo'yib berishni ma'qul deb hisoblaymiz. Bundan tashqari tahlillar ham shuni ko'rsatyaptiki, davlat sudlari bilan yaxshi ma'noda raqobat hosil qilish uchun hakamlik sudlari sudyalari ham munosib amaliyot, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim.

Shu munosabat bilan respublikamizda hakamlik sudlari to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflarni amaldagi qonunchilikka kiritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Birinchidan, hakamlik sudida yakka va kollegial mehnat nizolarini va oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan mulkiy nizolarni, ko'chmas mulk bilan bo'g'liq bo'lgan nizolarni ko'rib chiqish uchun o'tkazish;

Masalan, Rossiya Federatsiyasi "Rossiya Federatsiyasida arbitraj (hakamlik muhokamasi) to'g'risida" 1-moddasiga ko'ra "Tomonlarning kelishuviga binoan, agar federal qonunlarda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, fuqarolik-huquqiy munosabatlar taraflari o'rtasidagi nizolar hakamlik sudiga (hakamlik muhokamasiga) yuborilishi mumkin¹³⁵".

¹³³ O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuni, 03.07.2018 yildagi O'RQ-482-son

¹³⁴ O'zbekiston Respublikasining "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi Qonuni, 16.10.2006 yildagi O'RQ-64-son

¹³⁵ Федеральный закон от 29.12.2015 N 382-ФЗ (ред. от 19.10.2023) "Об арбитраже (третейском разбирательстве) в Российской Федерации"

Ikkinchidan, hakamlik sudi sudyalarini faqat oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar orasidan saylash tartibini joriy etish;

Uchinchidan, hakamlik sudi sudyalari reestriga kiritish uchun ularni Sudyalar Oliy maktabida o'qitish yoki ularning malakasini oshirish;

To'rtinchidan, ma'lumki, Mehnat nizolari - amaldagi mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlarni tadbiq etish yoki yangi mehnat shartlarini belgilash yoxud mavjud shartlarini o'zgartirishga doir masalalar bo'yicha yuzaga keladigan va qonunda o'rnatilgan tartibda hal etiladigan kelishmovchiliklardir.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 570-moddasiga ko'ra yarashtiruv-vositachilik tartib-taomillari jamoaviy mehnat nizosini dastlab yarashtirish komissiyasida, unda kelishuvga erishilmaganda esa mehnat arbitrajida, shuningdek taraflarning o'zaro kelishuviga ko'ra mediatsiya tartib-taomillarini qo'llagan holda tadrijiy hal etishdan (tartibga solishdan) iboratdir¹³⁶. Yarashtirish komissiyasi jamoaviy mehnat nizosini taraflarni yarashtirish yo'li bilan hal etish (tartibga solish) uchun ish beruvchi va xodimlar (ularning vakillari) o'rtasidagi kelishuv asosida tuziladigan organdir. Mehnat arbitraji yarashtirish komissiyasida kelishuvga erishilmaganda jamoaviy mehnat nizosi taraflari tomonidan nizoni hal etish uchun vakolatli shaxslarni jalb etgan holda tuziladigan vaqtincha yoki doimiy asosda faoliyat ko'rsatuvchi organdir.

Ushbu holatda mehnat nizolarini ko'rib chiqish komissiyalari vakolatini to'liq hakamlik sudlariga o'tkazish lozim. Bu bo'yicha masalan, hakamlik sudi sudyalari malakasini O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligida o'qitish ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

Amalda esa mehnat nizolarini Mehnat nizolari komissiyasi va sud ko'rib chiqadi. Xodim mehnat nizosini hal qilish uchun, o'z xohishiga ko'ra, mehnat nizolari komissiyasi yoki bevosita sudga murojaat etishga haqli.

Beshinchidan, xodimlarga mehnat munosabatlarida ijtimoiy kuchsiz taraf sifatida o'z mehnat nizolarini Hakamlik sudlariga o'tkazish yuzasidan murojaat qilish huquqini berish. Bunda davlat sudlarining ish hamini kamaytirish, ularning ish sifatini yaxshilash orqali hozirgi kundagi noqonuniy bo'shatishlar, sudlarning davlat tashkilotlari foydasiga qabul qilayotgan ko'plab qarorlarini alternativ va eng asosiysi mustaqil hal etilishi uchun zamin yaratish lozim.

Oltinchidan, barcha hakamlik sudi sudyalariga oliy yuridik ma'lumot bilan birgalikda, sudya bo'lish uchun o'z ma'lumoti bo'yivha kamida 3 yillik mehnat stajiga ega bo'lish talabini qo'yish lozim.

Yettinchidan, oilaviy mulkiy munosabatlarni hal etish, mulkni bo'lish, meros va shunga o'xshash masalalarni hal etish huquqini hakamlik sudlariga topshirish ham maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin.

¹³⁶ O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.10.2022-y., 02/22/798/0972-son; 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-son; 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son)

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda iqtisodiy munosabatlar subyektlari o'rtasidagi iqtisodiy nizolarni va boshqa mulkiy, mehnat kelishmovchiliklarni hal qilishning u yoki bu vositalari yoki usullarini tanlashda tomonlar, eng avvalo, ularning vakolati, malakasi, samaradorligi va adolatliligiga ishonchlari komil bo'lishi kerak. Hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan nizolarni hal qilish vositalarining xilma-xilligi ularning barchasidan istisnosiz iqtisodiy xarakterdagi nizolarni hal qilishda foydalanish mumkinligini anglatmaydi.

Shu bilan birga, bugungi kunda hech kim hakamlik sudlarining vakolatlarini oshirish, bu sohasida yuzaga keladigan nizolarni hal qilishning asosiy usuli ekanligiga shubha qilmaydi. Hakamlik sudlariga davlat sudi doirasidan tashqarida kelishmovchiliklarni hal qilish usuli sifatida qiziqish tasodifiy emas.

O'z navbatida, bunday yuqorida ko'rsatilgan vakolatlarni taqdim etilishi va davlat tomonidan rag'batlantirilishi ijobiy kumulyativ ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ehtimol, qonunchiligimizni boshqa mamlakatlar, ayniqsa samarali hamkorlikni davom ettirishga tayyor bo'lgan qonunlar bilan uyg'unlashtirishga e'tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN MANBAALAR:

1) O'zbekiston Respublikasining "Davlat boji to'g'risida"gi Qonuni, 06.01.2020 yildagi O'RQ-600-son.

2) O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuni, 03.07.2018 yildagi O'RQ-482-son.

3) O'zbekiston Respublikasining "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi Qonuni, 16.10.2006 yildagi O'RQ-64-son.

4) Федеральный закон от 29.12.2015 N 382-ФЗ (ред. от 19.10.2023) "Об арбитраже (третейском разбирательстве) в Российской Федерации".

5) O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.10.2022-y., 02/22/798/0972-son; 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-son; 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son).